

ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI

Sattarova Maxsuda Rajabovna

Toshkent viloyati Angren shahar 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalar, ulardan foydalanishni shakllantirish strategiyasi ochib berilgan.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: yosh avlod qalbida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli ekanligini, har bir pedagog mavjud texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishishini ko'rsatib berish.

Natija: O'quvchilar nutqining ravonligini ta'minlashda ona tili darslarida o'quvchilar faolligini ta'minlashda va ularning nutqini erkin bayon qila olishlari uchun yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlash.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar, zamonaviy, yangi...

Strategy of formation of new pedagogical technologies in mother tongue classes

Sattarova Maksuda Rajabovna

Angren city, Tashkent region

8th general secondary school

teacher of native language and literature

Abstract: this scientific article reveals new pedagogical technologies and the strategy of their use in the mother tongue classes of a general secondary school.

The purpose of writing this article is to show that in the hearts of the young generation, modern pedagogical technologies, in particular, are a product of the development of modern didactics and pedagogy, and that every pedagogue will definitely achieve a positive result if he uses the existing technologies in his lessons.

Result: Emphasizing the importance of new pedagogical technologies to ensure the fluency of students' speech, to ensure students' activity in mother tongue classes and to be able to express their speech freely.

Key words: pedagogical technologies, innovative methods, modern, new...

Стратегия формирования новых педагогических технологий на уроках родного языка

Саттарова Максуда Раджабовна

г. Ангрен, Ташкентская область.

8-я общая средняя школа

учитель родного языка и литературы

Аннотация: в данной научной статье раскрываются новые педагогические технологии и стратегия их использования на уроках родного языка в общеобразовательной школе.


Цель написания данной статьи – показать, что в сердцах молодого поколения современные педагогические технологии, в частности, являются продуктом развития современной дидактики и педагогики, и что каждый педагог обязательно добьется положительного результата, если будет использовать существующие технологии на своих уроках.

Результат: Подчеркивается важность новых педагогических технологий для обеспечения беглости речи учащихся, обеспечения активности учащихся на занятиях родным языком и возможности свободно выражать свою речь.

Ключевые слова: педагогические технологии, инновационные методы, современные, новые...

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining

fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Jumladan, ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirishbayon metodi, suhbat metodi, analizsintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi O'quvchilar nutqining ravonligini ta'minlashda ona tili darslarida grammatika grammatika uchun emas, grammatika amaliyot uchun tamoyiliga asoslanyapti.



Dars jarayonlarini olib borishda har bir pedagog o'quvchilar faolligini ta'minlashda va ularning nutqini erkin bayon qila olishlari uchun turli grammatik o'yinlar, muhokamali topshiriqlar, testlar, rasmlil topshiriqlar, rebuslar va shu kabilardan samarali foydanmog'i lozim. O'quvchilarni yanada darsga qiziqishini oshirish, ularning nutq boyligini o'stirishda imkon darajasida videodarslar, audiodars hamda kompyuter texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha

o‘qituvchi ta’limni tashkil etadi, nazorat qiladi. Bu borada buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning quyidagi so‘zlari fikrimizning dalili bo‘la oladi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur”.

«**O‘zliging namoyon et**” metodi. Bunda o‘quvchilarning so‘zlarni talaffuz qilish qobiliyati, nutq madaniyati, o‘zini sahnada tutish odobi, aktyorlik qobiliyati sinaladi. Bunda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quvchilar uchun kichik sahna ko‘rinishlarini obrazga kirib ijro etish maqsadga muvofiq.

“**Ishbilarmon**” o‘yini. Quyida berilgan har bir shakl ichidagi so‘zlardan bittasi ortiqcha. Shu ortiqcha so‘zlarni toping, nima uchun ortiqchaligini tushuntiring.

**shu-shu, har qancha, o‘sha-o‘sha,
har kim, har bir, allanima, har nima,
allaqaysi**

**hamma, barcha,
bari, o‘z, hech
kim, jami**


**Har kim, har vaqt, har
doim, har nima, har on,
har lahza**

O‘yin asosan guruh sardorlariga beriladi. Bu o‘yinda o‘quvchiga vaqt beriladi. Birinchi bo‘lib to‘g‘ri, aniq qilib so‘zlarni qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniq dalillar bilan isbotlab bergan g‘olib bo‘lgan guruh sardori eng ishbilarmon, faol o‘quvchisi deb sanaladi.

“**So‘zsiz suratni izohlash**” metodi. O‘quvchilarga faqatgina rasmlargina mavjud bo‘lgan izohlarsiz suratlar jo‘natiladi. Ular har bir rasmlarni kuzatib, gap tuzadilar va yozadilar. Tuzgan matnlarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va she’riy parchalardan foydanishlari mumkinligi ta’kidlanadi. Bu orqali ularning tasavvurlari kengayadi, ijodiy

fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ona tili fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

“Qo‘sh sharlar” o‘yin texnologiyasi
Turli rangdagi sharlarga jarangli va jarangsiz undoshlar yoziladi. Ishtirokchilar sharlarning rangiga e‘tibor berib yozilgan harfning jufti qaysi sharda ekanligini topadilar.
Masalan: Jarangli undoshlar
b, v, g, d, z, j, g‘
Jarangsiz undoshlar
p, f, k, t, s, ch, x



Xullas, bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta‘lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta‘minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rafiyev A. , G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. T., “Sharq”, 2013-yil.
2. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.. Monografiya.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2016-yil.
3. M.X.To‘xtaxo‘jayeva —Umumiy pedagogika T.: —Fan nashriyoti-2006- yil